

“QISSAYI BARZO’YI SHER” DOSTONI

Solijonova Zarnigor Baxriddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi

ToshDO’TAU 2-bosqich magistranti

solijonovazarnigor9430@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Qissayi Barzo’yi sher” dostoning matn tarixi, tabdili va tahriri, tadqiqot obyekti sifatida olingan.

Kalif so’zlar: *Qissayi Barzo’yi sher*, *matn tarixi*, *matn tahriri*, *qiyoslash*, *tabdil*.

Аннотация: *В данной статье в качестве объекта исследования взята текстовая история и редакция эпоса “Qissayi Barzo’yi sher”*

Ключевие слова: *“Qissayi Barzo’yi sher” история текста, редактирование текста, сравнение.*

Annotation: *In this article, the text history and edition of epic “Qissayi Barzo’yi sher” is taken as the object of study.*

Key words: *“Qissayi Barzo’yi sher” text history, text editing, comparison*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-mayda qabul qilingan” Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ -2995 Qarori, shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017 -yil 23-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Alisher Navoiy nomidagi davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetiga tashrif chog‘ida o‘zbek mumtoz adabiyotiga taalluqli manbalarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish, shu yo‘nalishda birinchi navbatda yetuk manbashunos va matnshunos kadrlarni tayyorlash vazifa qilib belgilanganligini kelib chiqib, ushbu dastur qayta ko‘rib chiqildi. Unga binoan, matnshunoslik va manbashunoslikka oid qo‘lyozmalar ko‘rib chiqildi va ular atroflicha o‘rganildi. Shunday manbalardan biri xalq og‘zaki namunalardan biri¹¹ “ Qissayi Barzo’yi Sher-farzandi Rustam “dostoni bilan tanishamiz. Sharq rivoyaviy mavzulari orasida “Shohnoma” ning asosiy qahramonlaridan biri Rustami dostoning farzandi Suhrob ning o‘g‘li Barzo’ haqidagi kitoblar ham ancha mashhur. Forsiy tilda XII-XVII asarlarda ikkita she’riy Barzo’nomalar yaratilgan. O‘zbek shoir va tarjimonlari Xomushiy

¹¹ Homidjon Homidiy. “Yillar samari”. Toshkent.2015

va Shoh Hijron (XVII) mana shu nusxalari va "Shohnoma" dan ijodiy ruhlanib, o'ziga xos "Barzo'noma"lar yaratilgan. Uning uchinchi variant 1914-yil Toshkentda "Qissayi barzo'yi Sher -farzandi Rustam" nomi bilan bosilgan. Asarning birinchi betida: "Tarjima qildurib, ehtimom ko'rguzuvchi Sayyid Xaybatullohxo'ja ibni Saidorifxo'ja Eshon va Isoxo'ja Nazir qori o'gillari "deb qayd etilgan. Ushbu asarning hajmi nihoyatda katta. Uning mazmuni, kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi juda murakkab. Unda asosiy voqeadan tashqari, voqea ichida voqea, hikoya ichida hikoyalar berilgan. Demak, u turkum syujetli asarlar sirasiga kiradi. Shunga qaramay, biz bu o'rinda kitobning bosh syujet chizig'ini, asosiy g'oyaviy yo'nalishi va obraz yaratish mahoratiga muxtasar tarzda to'xtab o'tamiz.

Romanning dastlabki sahifalarida voqealar bir oz parokanda holda tasvir etiladi. Unda Barzo', Zol, Rustam, Afrosiyob, Karlon dev kabi obrazlar ishtirok etadi, goh Barzo'ning kabirlarga qarshi yakkama-yakka olishuvi, tang ahvolda qolgach, biyobon tomondan Rustam paydo bo'lib, yordam berishi karlon devning eroniylar boshiga ko'p tashvishlar solishi tasvirlangan. Ana shunday so'ng "Emdi Barzo'yi Sherdin eshitmoq kerak", degan boshlanma bilan bevosita Barzo' sarguzashti tasviriga o'tiladi. Yakkama-yakka olishuvi tez-tez olomon urushlar bilan almashinib turadi. Seistoniylar, Oqili A'zam Barzo'ning o'g'li Ozarbarzin, Malik Xurshid, Guliston hokimi Rustami Sher, Rubini Haramzoda voqealar maydoniga chiqadi. Ularning har biri o'ziga xos salavat va kelbatga ega. Xuddi shu yerda yaralangan Ozarbarzinni oti jang maydonidan olib chiqib, bir chashma labiga kelishi, ovga chiqqan Malik Xurshidning uni davolash bilan bog'liq tavsilotlar keng tasvirlangan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, voqeaga asta-sekin yangi-yangi lavhalar, ular bilan bog'liq holda favqulodda kuch-qudratga ega bo'lgan bahodirlar jalb etiladi. Bilsimi Filbon, Gershasbonu, Talhaq obrazlari ana shunday betakror qahramonlardir. Qizig'i shundaki, asarda Talhaq sarguzashti Ozarbarzinning boshidan kechirgan voqealarga o'xshaydi. Lekin muallif bu yerda Jurjon shohining qizi malikai Dilorom obrazini kiritib, voqeani "Bijon va Manija" dostoning syujetiga yaqinroq bir usulda tasvirlaydi. Chaqimchilik, fitna, qora niyatli, g'alamislar ustidan aql-farosat, tadbirkorlik, mardlik va jasorat g'alaba qiladi. Shoh Malikai Diloromni Talhaqqa nikohlab beradi.

Bu va boshqa voqealar Barzo' sarguzashtini jangu jadallar, zafaru nusratni to'ldiradi, yorqinroq tasvirlanishiga yordam beradi. Talhaq zahmdor bo'lib, oyi maydondan olib chiqib ketgach, Rubin yana barzo' lashkariga hujum qiladi, Sad ibni Talha va Suhrob ibni Talhalarni Zahmdor

qiladi, Barzo' bilan teng keladi Qahramonni Devkush zarbidangina Rubin boshliq dushmanlar chekinadi .Shu yerda yarador Sad ibni Talhaning sarguzashti boshlanadi . Boshqa epizodlarga nisbatan bu qisqartma hikoya ancha nursiz, sxematik tarzda berilgan. Undagi Sardor , Sulaymon , uning qizi obrazlari , ularning safar yo'lidagi devlar bilan jang shunchaki sanab o'tiladi. Ushbu voqea tasviridan so'ng "Mavlono Firdavsiy Tusiy rahmatullohi alayha andog' rivoyat qilurlarkim, ul kunikim ikki daryoi lashkar ajrashib oromgohlariga qaror oldilar. Vaqtekim har tarafga ayyorlarni buyurdi hech yerdin Talhani topadilar . Barzo'yi sher darg'azab bo'lib, manim otimg'a table jang cholunlar , deb buyurdi" singari jumlar bila yana bevosita Barzo' faoliyati tasviriga o'tiladi. Barzo' jangdan janggi o'sib, kamolotga yetib boradi; butun faoliyatini xalqini , yurtini g'animlardan asrashga safarbar etadi. Oddiy dehqon yigiti aql-farosatda , harbiy hunarda ne-ne bahodirlaru shohlarni lol qoldiradi ; yer yuzidan zulm-zo'rlik , jaholat urug'ini supurib tashlashga intiladi. U Nosiri Fildandon , ibni al - g, ayb , Bilsim singari bahodirlar bilan maydon talashadi; dorobi Zarrinkamar bularga ko'makka keladi. Ikki tomon pahlavonlari ko'p talafotlar beradilar. Mana shu jangler bevosita barzo' faoliyati bilan uzviy bog'lab, tasvirlab boriladi. Ular qissaning asosiy voqearini to'ldirib, mukammallashtirib borishga xizmat qiladi. Oxiri Barzo' Niqori Gardinishuturlab g'ukning zarbidan daryoga quladi .Shundan so'ng Barzo'ning uzundan-uzoq sarguzasht tasviri beriladi. Barzo'ning Faridunshoh qizi Zubaydaga uylanishi Raxshning yo'qolishi , Mozandaron devlaridan bo'lmish Bilqiyosning Rustam avlodidan o'ch olishga intilish , Jahongirning tug'ilishi , Barzo'ning yo'qligidan foydalanib turoniylarning Seistonga hujumi "Shohnoma " dagi " Rustam va Suhrob " dostoniga taqlidan tasvirlanadi. Xarakterlisi shundaki, ushbu roman voqeariga deyarli " Shohnoma " dagi ko'p dostonlarning syujetlaridan ba'zi epizodlar mohirona tarzda singdirib yuboriladi, ilova qilinadi. Bunday dostonlar muqaddimasida " Firdavsiy Tusiy rivoyat qilurlarkim " deb, bu voqea " Shohnoma " dan olingan alohida ta'kidlanadi .Natijada , Dorob , Xumoy , Baxman, Isfandiyor , Faromarz , Zabora , Behruz , Soson , Bobak ibni Ardasher O'turud binni Jahongir singari obrazlar voqealarda faol ishtirok etadilar. Endi Barzo' va uning tarafdorlari bir tomondan , tashqi dushmanga qarshi kurashadilar, ikkinchi tomondan, Isfandiyor uchun qasos olish maqsadida Zobulga hujum qilgan Bahman va Dorobga qarshi jang qilishga majbur bo'ladilar. Ikki tomonlama ziddiyat , rang- barang jangu talashlar , fantastic sarguzashtlar tobora taranglashib boradi. Bazan shunday jumlar , birikmalar va iboralar ishlatiladigan , ularda butun bir

manzara chuqur bir fikr ixcham , lo'nda ayni paytda , obrzali, ta'sirchan ifodalangan bo'ladi. To'g'ri , bu xildagi iboralar shu tarzda yaratilgan boshqa nasriy asarlar tili uchun ham xosdir. Lekin biz bu yerda ularning original bir tarzda ishlatilganligini kuzatamiz . Bobak ibni Ardasherining “ haybatidin zaminu zamon , makinu makon kurrayi simobdek iztirobga keladi” , Gershasbonu bilan Ardasher nomiga table jang urganda “ abr saqolik va bod farroshliq rasmini ado ayladi “, “ fikrning otini hayrat biyobonida yurgizdi “ , Barzo' bila Suforni yarashtirgan niqobdor ularga “ Mundin keyin bir-biringizga gina va adovat qilmagaysizlar , buhl va hiyonat urug'ini ko'ngullaringizni ziyoratgohiga tikmagaysizlar “ deb tinchlik va hamjihatlikka da'vat etadi.

Xulosa qilib aytganda , mazkur asar o'zbekcha “Barzo'noma “ lar orasida o'ziga xos yangi bir sarguzasht roman namunasi sifatida jiddiy o'zgarish va qayta nashr etishga arziydi. Bizningcha , uni Xislat bir necha forsiy manbalar asosida qayta yaratgan. Chunki, forsiy tilde bu xildagi “ Barzo'noma “ ni biz uchratmadik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Sirojiddinov Sh . Matnshunoslik saboqlari .-Toshkent , Navoiy universiteti,2019 .-B .18.
2. Homidiy H . Yillar samari .-Toshkent ,2015.-B.185.
3. www.ziyo.net.